


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yilning yanvar-oktabr oyida Jizzax viloyatida 2440 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,7 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1915 ta (15,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14003 tani tashkil etgan.


Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 18,5 % savdoda, 15,7 % sanoatda, 15,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 9,4 % qurilishda, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 28,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Jizzax viloyatida	14700	14003	100	100
Jizzax sh.	4505	4294	30,6	30,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	434	434	3,0	3,1
Baxmal	868	805	5,9	5,7
G'allaorol	1124	1122	7,6	8,0
Sharof Rashidov	2368	2306	16,1	16,5
Do'stlik	610	566	4,1	4,0
Zomin	1187	1150	8,1	8,2
Zarbdor	689	665	4,7	4,7
Zafarobod	423	361	2,9	2,6
Mirzacho'l	515	459	3,5	3,3
Paxtakor	606	553	4,1	3,9
Forish	1054	979	7,2	7,0
Yangiobod	317	309	2,2	2,3

2018 yil yanvar-oktabr holatiga 2440 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 35,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida (634 ta), Sharof Rashidov (376 ta), Zomin (201 ta) va Forish (197 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (58 ta), Mirzacho'l (66 ta) hamda Zafarobod (82 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (528 ta), sanoatda (465 ta), savdoda (363 ta) va qurilishda (258 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (23 ta) hamda tashish va saqlashda (59 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2017 yil 1 noyabr xolatiga			2018 yil 1 noyabr xolatiga		
	Jami	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o`rmon xo`jaligi	518	185,0	28,8	528	101,9	21,6
Sanoat	350	182,3	19,5	465	132,9	19,1
Qurilish	143	111,7	8,0	258	180,4	10,6
Savdo	218	72,2	12,1	363	166,5	14,9
Tashish va saqlash	48	64,9	2,7	59	122,9	2,4
Yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	144	139,8	8,0	134	93,1	5,5
Axborot va aloqa	20	80,0	1,1	18	90,0	0,7
Sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish	28	200,0	1,6	23	82,1	0,9
Boshqa turlari	329	226,9	18,2	592	179,9	24,3


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 10996 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3787 ta, oilaviy korxonalar – 485 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6377 ta va boshqalar 347 tani tashkil etadi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 115 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 51,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 90 tasi qo'shma korxonalar, 25 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar 54 ta (47,0 %), Zomin 11 ta (9,6 %) va G'allaorol tumanlari 9 ta (7,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Zafarobod, Mirzacho'l va Yangiobod 2 ta (1,7 %), Arnasoy, Baxmal va Zarbdor 3 ta (2,6 %), Do'stlik va Paxtakor 5 ta (4,3 %) tumanlar hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 66 ta (57,4 %), savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 18 ta (15,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (4,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va axborot va aloqada 1 ta (0,9 %), tashish va saqlashda va qurilishda 3 ta (2,6 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi

korxonalarining asosiy qismi sanoat, savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 38 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 11 ta, Rossiya Federatsiyasi – 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 8 ta, Islom Respublikasi Afg'oniston - 2 ta, Isroil Respublikasi - 2 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta, Turkmaniston Respublikasi – 2 ta, Eron Islom Respublikasi - 1 ta, Amerika Qo'shma Shtatlarida — 1 ta, Koreya Xalq-Demokratik Respublikasi -1 ta, Saudiya Arabistoni Qirolligi –1 ta va Pokiston Islom Respublikasidan – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktabr holatiga) birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 14 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11 ta, savdoda 9 ta, qurilish va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-oktabr			2018 yil yanvar-oktabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	6	600,0	75,0	14	233,3	36,8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2		25,0	11	550,0	28,9
Savdo				9		23,7
Qurilish				1		2,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar				1		2,6
Boshqa turlari				2		5,3

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10955 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 16,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3591 tasi (32,8 %) Jizzax shahriga, 1987 tasi (18,1 %) Sharof Rashidov, 861 tasi (7,9 %) G'allaorol hamda 834 tasi (7,6 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10955 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2577 tasi (23,5 %) – savdoda, 2180 tasi (19,9 %) - sanoatda, 2070 tasi (18,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1319 tasi (12,0 %) - qurilishda, 936 tasi (8,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 505 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 149 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 128 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1091 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktabr holatiga 2023 dan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 30,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida (543 ta), Sharof Rashidov (317 ta), Forish (173 ta) va G'allaorol tumanlarida (171 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (42 ta), Mirzacho'l (53 ta) hamda Zafarobod (62 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (525 ta), sanoatda (463 ta), savdoda (363 ta) va qurilishda (258 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (23 ta) hamda tashish va saqlashda (59 ta) tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 516 tani tashkil etib, ulardan 485 tasi yoki 94,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 41,2 % yoki 200 tasi sanoat, 25,4 % yoki 123 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,3 % yoki 79 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,1 % yoki 44 tasi savdo, 1,0 % yoki 5 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,2 % yoki 29 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-83-65 (66)